

JANUBI-G'ARBIY QIZILQUMNING PALEO-TARIXI

¹Elmuratov Bahodir Abdugapparovich, Alfraganus universiteti
katta o'qituvchi

²Muminov Orifhuja Adilovich, O'zRFA Milliy arxeologiyasi
markazi katta ilmiy xodimi

PALEOHISTORY OF SOUTHWESTERN KYZYLKUM

¹Elmuratov Bahodir Abdugapparovich, Senior Lecturer
Alfraganus University

²Muminov Orifhuja Adilovich, Senior Researcher, National
Center for Archeology, Academy of Sciences of Uzbekistan

ПАЛЕОИСТОРИЯ ЮГО-ЗАПАДНЫХ КЫЗЫЛКУМОВ

¹Элмуратов Баходир Абдугаппарович, старший
преподаватель университета Альфраганус

²Муминов Орифхужа Адилевич, старший научный
сотрудник Национального центра археологии АНРУз

Annotatsiya: Ushbu maqola janubi-g'arbiy Qizilqumning o'rganilishiga bag'ishlangan bo'lib, ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'rta paleolit daridan boshlab o'zlashtirilganligi, termachilik, ovchilik tosh buyumlar yasashga ixtisoslashgan ustaxonalardan foydalanilgani va bizgacha saqlanib qolgan yagona artefaktlarni dunyo paleolitshunoslar ishlab chiqqan texnik-tipologik usullardan foydalangan holda o'rganilgani, turmush tarzi va xo'jalik hayoti ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Amudaryo, Zarafshon, Qizilqum, paleolit, Oyoqog'itma, Boshog'itma, botiq, topilmajoy, qatlam, texnologik, tipologik.

Abstract: This article is devoted to the study of the southwestern Kyzylkum, which was mastered by our primitive ancestors starting from the Middle Paleolithic, the use of workshops specializing in the manufacture of stone tools for hunting and gathering, and the unique artifacts that have survived to our time, as well as their lifestyle and economic life using technical and typological methods developed by world paleolithic scholars, are revealed.

Keywords: Amu Darya, Zarafshan, Kyzylkum, paleolithic, Ayakagitma, Bashogitma, depression, site, layer, technological, typological.

Аннотация: Статья посвящена изучению юго-западных Кызылкумов, которые осваивались нашими первобытными предками, начиная со среднего палеолита, выявлению мастерских, специализирующихся на изготовлении каменных орудий охоты и собирательства, и уникальных артефактов, сохранившихся до нашего времени, а также их образа жизни и хозяйственной жизни с использованием технико-типологических методов, разработанных мировыми палеолитологами.

Ключевые слова: Амударья, Зарафшан, Кызылкум, палеолит, Аякагитма, Башогитма, впадина, стоянка, слой, технологический, типологический.



<https://orcid.org/0009-0001-1757-8066>

e-mail:
elmuratov1985@bk.ru



KIRISH. Yangi O'zbekistonning muhim tarkibiy sarhadlarini tashkil qiluvchi Qizilqum cho'li hududlarida ajdodlarimizning bir necha ming yilliklarga teng, boy tarixi mavjud. Ammo aksariyat hollarda uzoq davom etgan tosh davri yodgorliklarida ibtidoiy odamlar tomonidan ishlov berilgan tosh buyumlarga saqlanib qolgan va ular o'tmishimizdan dalolat beruvchi asosiy axborot manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu artefaktlar bizdan minglab va hatto yuz minglab yillar qadimda yashagan ajdodlarimizning hayoti haqida muhim ma'lumotlar beradi. Kishilik jamiyatida tosh davrini arxeologik materiallarda saqlanish darajasi va ularning takomillashuv jarayoni ibtidoiy ajdodlarimizning hayot tarzi, madaniy-xo'jalik hayoti, qadim zamonlardan boshlab bir vohadan ikkinchi vohaga migratsiya qilishlari qay tariqa amalga oshirilganligi va tarixiy ildizlarini aniqlash ustuvor vazifa qilib belgilab olingan.

Qizilqum cho'li paleolit va neolit davrlarida bepoyon vodiy bo'lib, ibtidoiy insonlar o'ta zich yashagan "ming ko'llar mamlakati" bo'lgan. Darhaqiqat, hududda o'nlab sersuv daryolar mavj urib oqqan, yuzlab yirik ko'llar va shunga mos fauna-flora mavjud bo'lgan[2.146-B]. Bugungi kunga kelib bu hududda paleolit hamda neolit davriga tegishli ko'plab arxeologik yodgorliklar tadqiqotchilar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Oyoqog'itmada botiq atrofida yodgorlikni o'rganish ishlari 2005-yildan O'zbekiston-Fransiya MAFANAC qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan davom ettiriladi. Olib borilgan tadqiqotlar kaltaminorliklarning chorvachilik bilan shug'ullanganliklari, qoramol kabi hayvonlarni xonakilashtirganliklarini aniqladi[1.P-87].

TAHLIL VA NATIJALAR. Ma'lumki, cho'l hududidan o'rta paleolit davrini xarakterlaydigan ko'plab topilmajoylar aniqlangan va ularning aksariyati hozircha, janubi-g'arbiy Qizilqum hududlaridan topilgan. Oyoqog'itma, Qorasigir (Qizilnura 1-16 punktlari), Boshog'itma topilmajoylari shular jumlasidandir. Afsuski, bu topilmajoylarning madaniy qatlamlari buzilgan va ularning katta qismi kremniylashgan xomashyo konlari atroflarida joylashgan ustaxonalaridir. Hududning paleolitga oid topilmajoylaridan faqatgina tosh buyumlarga aniqlangan.

Janubi-g'arbiy Qizilqum qadimgi tosh davri aholisining xo'jaligi haqida faqat tosh buyumlarga ko'ra fikr yuritish imkoni mavjud. 2021-yilga O'zbekiston paleolitchilari tomonidan topilgan, madaniy qatlamlari buzilgan so'nggi paleolit davri makoni, Oyoqog'itma-II (paleolit davriga oid topilmalari) va Boshog'itma 3-topilmajoylari hamda Oyoqog'itma botig'i so'nggi paleolitga oid, deb topilgan 1-11-punktlari ushbu botiqlarning bortida joylashgan bo'lgan.

Pleistotsen davrining o'rtalari va ikkinchi yarmida janubi-g'arbiy Qizilqum hududidagi Oyoqog'itma, Boshog'itma va boshqa botiqlar chuchuk suvlar bilan to'lgan bo'lgan. Yog'ingarchilik hozirgiga qaraganda bir necha barobar ko'p yoqqan. Natijada, hududda shunga mos fauna va flora hukm surgan. O'rta paleolit davri odamlari ana shu botiqlar bortlariga kelib joylashib, bu yerlarni makon tutganlar. Ma'lumki, paleolit davri aholisining asosiy mashg'uloti ovchilik va termachilik bo'lgan. Keyinchalik tabiiy ta'sirlar tufayli botiqlarning eng yuqori terrasalarida joylashgan paleolit davri makonlari buzilib, materiallar pastga – neolit davri makonlariga va botiqning hovuziga oqib tushib qolgan. Buning yorqin misoli sifatida Oyoqog'itma-II neolit makoni ustida va atrofidan topilgan so'nggi paleolit davri materiallarini hamda botiqning qurigan hovuzidan topilgan 1-11 punktlar artefaktlarini misol keltirish mumkin.

Oyoqog'itma-II neolit makoni so'nggi paleolit davri materiallari orasida uchirindilar va plastinalar aniqlandi. Ular orasida retushlanganlari ham uchraydi va ulardan hayvon terilarini shilishda, maydalashda foydalanilgan. Materiallar kremniy va kremniylashgan tosh jinslaridan ishlangan. Bunday xomashyo turlari Oyoqog'itma botig'i atroflarida uchraydi, ya'ni xomashyo mahalliy xarakterga ega. Aytish mumkinki, Oyoqog'itma botig'i hududida paleolit davri odamlarining yashashi uchun chuchuk suv, xomashyo va qulay paleoekologik sharoitlar mavjud bo'lgan.

Oyoqog'itma botig'ining terrasalaridan 2012-yilda aniqlangan 1-11-punktlar materiallari texnik-tipologik jihatdan so'nggi paleolit davrini xarakterlaydi. Bu yerdan topilgan materiallar orasida levallua tipidagi uchirindilar va plastinalar, bir-ikki zarb maydonli nukleuslar va kesgichlar uchraydi.

Ushbu topilmajoylar janubi-g'arbiy Qizilqum hududida aniqlangan so'nggi paleolit davriga oid dastlabki topilmalardan hisoblanadi. Topilmalar nafaqat ovchilik va termachilik, balki teriga va suyakka ishlov berilganligi haqida ham guvohlik beradi. Aytish mumkinki, Oyoqog'itma botig'ining sharqiy va shimoliy terrasalarida nafaqat o'rta, balki so'nggi paleolit davrlarida ham istiqomat qilingan. Bu makonlarda toshlarni chaqmoqlashning konseptual levallua texnologiyalari hukmron bo'lgan. Xo'jalikning ovchilik, termachilik bilan birga teriga, ehtimol, yog'ochga va suyakka ishlov berish kabi murakkab tarmoqlari mavjud bo'lgan. Keyinchalik tabiiy ta'sirlar tufayli ushbu makonlarning madaniy yotqiziqlar va ulardagi arxeologik materiallar botiqning hovuziga oqib tushib qolgan. Suyakdan ishlangan buyumlar saqlanib qolmagan.

Boshog'itma 1-topilmajoyi materiallari faqat kremniylardan (jigarrang kremniy) ishlangan va tashqi tomonlari o'rta darajada lyustratsiyalashgan, ya'ni deflyatsiyaga uchraganligi bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, Boshog'itma 1-topilmajoyi materiallari primitiv texnologiyalar yordamida ishlov berilganligiga qaramasdan (Oyoqog'itma-II neolit makoni paleolit davri topilmalari kabi) hajmi 5 sm dan oshmaydi. Bu holat, A.P.Derevyankoning Yevroosiyo qit'asining Osiyo qismida "mikroindustrial komplekslar"ning hukm surganligi haqidagi fikrlarini[3.C-47] tasdiqlaydi. Biroq, A.P.Derevyankoning tadqiqotlarida bunday industriyalar ilk paleolit davrlarida hukm surgan. Boshog'itma 1-topilmajoyi materiallari ularning o'rta paleolit davri boshlarida ham davom etganligini ko'rsatishi mumkin.

Tadqiq qilingan hududda mezolit davriga oid topilmalar uchramadi. Biroq, Oyoqog'itma-II neolit makoni bitta eng quyi qatlamini saqlab qolgan (40 sm). Qatlamdan tosh buyumlar bilan birga oxra va hayvon suyak qoldiqlari aniqlandi. Biroq suyak qoldiqlari maydalanib ketgan, butunlari ham mayda sut emizuvchilarga tegishli. Tosh industriyasining xarakteriga ko'ra yodgorlik 4 km shimoli-sharqroqda joylashgan Oyoqog'itma-I makoniga o'xshash.

Hududning paleoekologiyasi bo'yicha avval o'rganilgan Oyoqog'itma-I makoni topilmalari anchayin to'liq ma'lumotlarni beradi. Bu yerdan xonakilashtirilgan qoramol suyak qoldiqlari aniqlangan. Bu Kaltaminor madaniyati sohiblarining

nafaqat ovchi-baliqchi, balki primitiv chorvadorlik bilan ham shug'ullanganliklari haqida qimmatli ma'lumotlarni berdi [4.P-174].

Oyoqog'itma-II neolit makonining va ko'lining atrofidagi hududlardan 2021-yilda ko'plab topilmalarning topilishi botiqda neolit davri jamoalari anchayin zich istiqomat qilganliklarini ko'rsatdi [5.21-B].

Janubi-g'arbiy Qizilqum hududlari o'zining qulay paleoekologik sharoitlari, xomashyo konlari, botiqlarda chuchuk suv havzalarining seroblighi va bu suvlarda baliqning mo'l-ko'lligi, atrofda boy fauna va floraning mavjudligi bilan ibtidoiy odamlarni o'rta paleolitning boshlaridanoq (300 ming yillar muqaddam, balki undan ham avvalroq, negaki, Boshog'itma 1-kompleksidan topilgan tosh buyumlar V.T.Petrin va A.P.Derevyankolar taklif qilgan morfologik usulga[6.C-317] ko'ra o'rta darajada deflyatsiyaga uchragan va bunday buyumlar kompleksi Qozog'istondagi Mugojar yodgorliklarida (ilk paleolitning oxiri yoki o'rta paleolit davrining boshlari bilan sanalangan)[7.C-136] o'zlashtirilgan. Bunday o'zlashtirish o'rta paleolit davriga kamida ikki marta sodir bo'lgan. Bunga Boshog'itma 1 va 2 komplekslari va Qizilnura-16 kabi topilmajoylarning materiallari guvohlik beradi. Negaki, Boshog'itma 2-kompleksi toshga ishlov berish ustaxonasi tipik-muste madaniyatiga xos ustaxona bo'lsa, Qizilnurada levallua texnologiyalari keng tarqalgan [8.C-97].

Janubi-g'arbiy Qizilqum hududi so'nggi paleolit davrining boshlaridanoq ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilganligi aniqlandi. Tilga olingan Oyoqog'itma-II neolit makoni hududidan topilgan paleolit davri kompleks materiallari, Oyoqog'itma 1-11 punkt hamda Boshog'itma 3-komplekslari Qizilqum hududidan topilgan so'nggi paleolit davriga oid topilmajoylari, Yesen-II ustaxonasidan [9.18-B] keyingi yangi yodgorliklar hisoblanadi.

XULOSA. Janubi-g'arbiy Qizilqum hududi A.V.Vinogradov ta'kidlaganidek, o'rta paleolit davrida ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilgan. Biroq paleoantropologik topilmalarning mavjud emasligidan kelib chiqib, aynan neandertal tipidagi jamoalar tomonidan o'zlashtirilganligi haqida gapirishga hali erta degan fikrdamiz. Umuman olganda, A.V.Vinogradovning fikrlariga qo'shilish mumkin. Biroq A.V.Vinogradov faqat muste davri materiallari va ularning madaniy-davriy

xususiyatlari haqida to'xtalmagan. Bizning tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, janubi-g'arbiy Qizilqum hududi o'rta paleolit davrida bir necha marotaba ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilgan. Materiallarning saqlanish darajasi turlichaligini A.V.Vinogradov ham ko'p marotaba e'tirof etgan. Balki ehtimol, o'sha davrlarda tadqiqot usullarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli tadqiqotchi ushbu materiallarni madaniy-davriy komplekslarga ajratmagan. Biroq tadqiqotlarning hozirgi darajasida janubi-g'arbiy Qizilqum hududi muste davri jamoalari tomonidan kamida ikki marta o'zlashtirilganligi va avtohton ravishda so'nggi paleolitga o'sib o'tganligi to'g'risida gapirish imkoni mavjud.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brunet F. Pour une nouvelle étude de la culture de Kel'teminar, Ouzbékistan // Paléorient. № 31/2. Paris. 2005.
2. Сайфуллаев Б.Қ, Элмуратов Б.А. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2021 йил 14-сон. Самарқанд-2022.
3. Деревянко А.П. Три миграционные волны. Новосибирск, 2017. -С.
4. Brunet F. Du neolithique a l'age du bronze en asie centrale (VIIe-IIIe millénaire): émergence de sociétés complexes dans un contexte de «mondialisation» Paris. 2016. -P. 1174;
5. Сайфуллаев.Б.Қ. Мозийдан садо, 4/92. 2021 йил. 21-бет.
6. Деревянко А.П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том II. Первоначальное заселение человеком Северной, Центральной и Средней Азии. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН. 2017.
7. Деревянко А.П., Петрин В.Т., Гладышев С.А., Зенин А.Н., Таймагамбетов Ж.К. Ашельские комплексы Мугоджарских гор (Северо-Западная Азия). – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2001. – 136 с.
8. Виноградов А.В., Мамедов Э. Кызылнура 1 — первый мустьерский памятник в Кызылкумах.- СА№ 1, 1969 -С.84—97.
9. Сайфуллаев Б.Қ., Эргашев О.Т., Мадреимов Б.Ж. Есен-2 устахонаси тош индустрияси. Ўзбекистон археологияси. Самарқанд, 2023. 18-Б.

